Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
<b>Ro'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalarda investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilox Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	



Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1295
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1298
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
<b>Кучаров Аброр Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи</b>	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi .....	1310
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b>	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
<b>Davronov Saxobiddin Faxriddinovich</b>	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili .....	1324
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni .....	1334
<b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich</b>	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective .....	1338
<b>Kholiyorova Shokhista</b>	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
<b>Taniyev Ahmadjon Bahromovich</b>	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari .....	1347
<b>Masharipov Maxmud Bekturdiyevich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
<b>O. Jono'zoqov</b>	
Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
<b>Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li</b>	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
<b>Fayzieva Nargiza Rabimovna</b>	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni .....	1375
<b>Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari .....	1380
<b>Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
<b>Xalikov Suyun Ravshanovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b>	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
<b>Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li</b>	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash .....	1411
<b>Maxkamboyev Komil Abdulkakovich</b>	



# QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY-IQTISODIY ASOSLARI VA DAVLAT SIYOSATI



**Xalikov Suyun Ravshanovich**

I.f.n., TDAU, "Agrologistika va biznes" fakulteti,  
Agroiqtisodiyot" kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sohasida davlat siyosatini yuritish bo'yicha tahliliy mulohazalar keltirilgan bo'lib agroinnovatsiyalarni moliyalashtirishni tartibga solishdagi asosiy yo'nalishlar o'rganilgan va innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning manbalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiya, davlat siyosati, tarkibiy o'zgarishlar, soliqqa tortish, bozor mexanizmi, faollik, ilmiy g'oya, fundamental mulk, xorij tajribasi, konsepsiya, baholash, uslublar, strategiya, innovatsion diffuziya, moliyalashtirish.

**Abstract:** This scientific article provides analytical considerations for the implementation of state policy in the field of agriculture, studies the main directions of regulation of financing of agricultural innovations, and presents sources of financing for innovation activities.

**Key words:** Innovative technology, public policy, structural changes, taxation, market mechanism, activism, scientific idea, fundamental property, foreign experience, concept, evaluation, methods, strategy, innovation diffusion, financing.

**Аннотация:** В данной научной статье приведены аналитические рассуждения к проведению государственной политики в сфере сельского хозяйства, изучены основные направления регулирования финансирования агроинноваций, представлены источники финансирования инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** Инновационные технологии, государственная политика, структурные изменения, налогообложение, рыночный механизм, активизм, научная идея, фундаментальное свойство, зарубежный опыт, концепция, оценка, методы, стратегия, распространение инноваций, финансирование.

## KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining asosiy masalasi – bu qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashda sohaga innovatsiyani joriy etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblanadi. Bugungi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oziq-ovqat mahsulotlarining yillik iste'moli 80-90 foizini tashkil qilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari importi yildan yilga kamayib, uning eksport hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning va mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda.

O'tgan davrda fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida zarur infratuzilma yaratildi va muayyan intellektual hamda texnologik salohiyat shakllantirildi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyaviy nazariyani asosiy rivojlanish bosqichi V. Zombart, V. Mitcherlix, Y. Shumpeterlvrning ilmiy ishlarida ilmiy munozaralar keltirilgan bo'lsada, innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y. Shumpeterning hissasi katta hisoblanadi. Y.Shumpeter kon'yunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarish va bozor rivojlanishidagi o'zgarishlarning yangi omillarini ajratadi va ularga quyidagilarni kiritdi:



- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarishning yangi uslubini joriy etish;
- sanoatning mazkur tarmog'ini taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o'zlashtirish;
- xom-ashyo yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, masalan; monopollikni ta'minlash.

Muayyan yangilik darajasini baholash va konyunktura siljishlarining amplitudasi va davomiyligini aniqlash uchun Y. Shumpeter tomonidan yangilik mezonini kiritdi va ushbu mezon mazkur turkumlashtirish asosini tashkil etdi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qishloq xo'jaligi sohasidagi innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan olib borilgan tahliliy ishlar ilmiy-tadqiqotlarda qo'llaniladigan analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOHOKAMASI

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlatimiz tomonidan mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirish muamolarini aniqlamay va ularning yechimlarini topmay turib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy muamolarini, ayniqsa, ishsizlikni oldini olish, aholi daromadlarini oshirish, iste'mol bozorini mahsulotlar bilan to'ldirish va eksportni oshirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Yuqoridagi muommalarni ijobiy hal etgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqariladigan YAIMning 67 foizdan ko'prog'ini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ining ulushiga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o'ynaydigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan kichik biznes korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish ishlarini amalga oshirishda yurtimizdagi siyosiy iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik har qanday sarmoyaning asosiy garovi va sharti bo'lib hisoblanadi. Chet el sarmoyasi uchun innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun qonuniy kafolat ham yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 25-avgustda qabul qilingan O'RQ-392-sonli "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyulda qabul qilingan PQ-916-sonli "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda qabul qilingan PQ-5495-sonli "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni kabi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqarishning texnologik darajasini yanada oshirishda ilmiy izlanishlarni fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib ishlab chiqarishning texnologik darajasining yanada oshirilib, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh va sifatli innovatsion mahsulotlarni olib chiqishni ta'minlab, innovatsion ishlanmalardan foydalanish va ilmiy texnikaviy salohiyatni rivojlantirishda muhim dastur bo'lmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015–2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida" 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni yangilash va innovatsion texnologiyalarini joriy etish bo'yicha uzluksiz jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu farmonda dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish borasida qiymati 30 million AQSH dollaridan ziyod va chet ellik investor ulushi kamida 50 foiz bo'lgan loyihalar bo'yicha ishlab chiqarish maydoni tashqarisida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yo'lga qo'yish budjet mablag'lari hamda ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Shu maqsadda, mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalar barqarorligini davlat tomonidan tartibga solishda uning rivojlanishini ta'minlash va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini mustahkamlashda milliy iqtisodiyotimizga ichki va xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, hukumatimiz tomonidan ichki va chet el investitsiyalari uchun mamlakatimizda yetarli darajadagi shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Hozirgi kunda xorijiy investorlarning o'z mablag'larini mamlakat qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida davlat qonunlari asosida qo'llab-quvvatlanishi maqsadida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;



- ko'rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga berilgan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi va imkoniyati borligi;
- bojxona imtiyozlarini mavjudligi;
- xorijiy investorlar mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimi yaratilgani.

Shu jumladan, hozir qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan korxonalarda bozor mexanizmiga yunaltilgan innovatsion faoliyatni shakllantirish va unda davlatning roli va maqsadlarini belgilash, istikbolli rejalar tuzish alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion sohaga taalluqli uslublar hamda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalangan holda ilg'or innovatsion texnika va texnologiyalarni jalb qilish korxonalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha imkoniyatlar yaratilib, davlat buyurtmasi hajmini oshirishga yordam berilmoqda. Shu bois, korxonalarda innovatsion boshqaruvni qo'llash zarurati mamlakatimiz qishloq xo'jaligi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Jumladan, uning asosiy iqtisodiy samarasini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- korxonalaridagi innovatsion faollikni oshirish uchun agrar, ilmiy va amaliy tashkilotlarini birlashtirish;
- olimlarning o'z tadqiqotlarini amaliyotga tatbiq qilishda faollik ta'sir ko'rsatadi;
- istiqbolli, ilmiy-texnika ishlanmalaridan tuman va mintaqa miqyosida qishloq ho'jalik oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqaruvchilarni istiqbolli darajalarini ta'minlash;
- innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar ilmiy muassalar va ishlab chiqarish asosida rivojlantirish;
- tuzilmalarining o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish;
- innovatsion texnologiyalar hisobini olib borish, ulardan foydalanish jarayonini tahlil qilish, bu boradagi ehtiyojlarning monitorongini o'tkazish va shu asosda keyingi ilmiy-texnika ishlanmalarini rejalashtirishga imkon berish;
- tarmoqning rivojlanish yunalishlarini muvofiqlashtirish, ilmiy -tadqiqot ishlari buyicha faoliyat va ularning ustivorligi strategiyasini ishlab chiqishga ko'maklashish;
- qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishni texnologik darajasining ko'tarilishi uchun muhim omilligini isbotlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo'lgan 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Murojaatnomasidagi fikriga ko'ra, "Ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmaslik bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. So'nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko'payib borayotgani bizni albatta hushyorlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo'qolib borayotgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo'lga qo'yish, sohaga ilm-fan yutuqlari, innovatsion ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur"<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasining innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun qulay muhit yaratilgan. Bularning hammasi, albatta, davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatda murakkablik va yuqori risk o'zida xarakterlanadi. Buning uchun innovatsiyada potensialni va ichki rag'batlantirishlar mavjudligi yetarli emas. Bu yerda hal qiluvchi harakat kuchi sifatida tashqi rag'batlantirishlar va davlat ko'magi bo'lishi mumkin. Davlatning faol ko'mak muhiti, avalambor, "Fundamental fan" fazasi hisoblanadi. Shunday ekan, ilmiy g'oyalarni qishloq xo'jalik faoliyatida ham keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tajribalar bo'yicha innovatsiyaviy jarayon subyektlari quyidagi guruhlariga bo'linadi: novatorlar, dastlabki retsiyentlar, dastlabki ko'pchilik va orqada qolganlar. Novatorlardan boshqa barcha guruhlar imitatorlar qatoriga kiradi. Y. Shumpeterning fikricha, yuqori daromadlarni kutish innovatsiyalarni qabul qilishning harakatlantiruvchi kuchidir. Innovatsiya diffuziyasining dastlabki bosqichlarida, xo'jalik subyektlaridan hech biri raqobatdosh innovatsiyalarning nisbiy ustunliklari to'g'risida axborotga ega bo'lmaydi. Ammo, xo'jalik subyektlari, bozordan siqib chiqarilishi xavfi ostida, muqobil yangi texnologiyalardan bittasini joriy etishga majbur bo'ladi. Innovatsiyalarni joriy etish har bir tashkilot uchun qiyin va murakkab jarayon hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish holatlarida, har bir subyekt tomonidan qaror qabul qilishning muhim mezonlaridan biri bo'lib, muqobil texnologiyalar va oldingi retsiyentlar tomonidan qabul qilingan qarorlarni taqqoslash xizmat qiladi. Ammo bunday axborotga ega bo'lish juda ham qiyin, chunki bu korxonalarining bozordagi raqobat o'ri bilan bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham, har bir korxonaga, faqatgina cheklangan miqdordagi korxonalar tajribasi bilan tanishgan bo'lishi mumkin. Aynan shu holat bozor iqtisodiyotida qaror qabul qilish va innovatsiyalar diffuziyasi jarayonlarining noaniqligini belgilaydi. Noaniqlikning yana bir sababi eng yangi texnologiyalar bilan bog'liq. Diffuziyaning dastlabki bosqichlarida ularning potensial daromadlilikligi noaniq bo'ladi. Noaniqlik, innovatsiyalarni joriy etish

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 22.12.2017-yil.




va ulardan foydalanish tajribasini yig'ib borish bilan yo'qqa chiqarilishi mumkin. Ammo yangi texnologiyadan foydalanish noaniqligi va tavakkalchiligi pasayishi bilan uni bozorga kirib borish salohiyati ham yo'qolib boradi va foydalligi tushadi. Har bir innovatsiyadan qo'shimcha foyda olish imkoniyati vaqtinchalik va uni tarqatish chegarasi yaqinlashishi bilan pasayib boradi.

Demak, innovatsiya diffuziyasi imitatorlar strategiyasiga ham, birinchi retsepiyentlar miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Tadbirkorlar yangi texnologik imkoniyatlarni ochmoqda, ammo ularni amalga oshirish imitatorni tanlashga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich tashkilotlari soni ko'p bo'lgan texnologiyaning bozorda yetakchi bo'lishi ehtimoli ham katta bo'ladi. Albatta, texnologiyalar raqobati natijasi bozordagi barcha agentlar tanlovi bilan aniqlanadi, ammo dastlabki retsepiyentlarning ta'siri baribir nisbatan kattaroqdir. Innovatsiyalarning tez tarqalishi uchun rivojlangan infratuzilma mavjud bo'lishi kerak. Innovatsiyaviy jarayon siklik xarakterga ega bo'lib, texnikaning turli sohalaridagi yangiliklarning xronologik tartibda paydo bo'lishi buni namoyon qiladi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish mumkinki, innovatsiya – bu shunday texnik-iqtisodiy siklik, unda tadqiqot va ishlanmalar sohasi natijalaridan foydalanish, ushbu soha faoliyatiga teskari ta'sir ko'rsatuvchi texnik va iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladi. Innovatsiyaviy jarayon faoliyati rivojlanishi sari alohida qismlarga bo'linadi va mehnat taqsimoti natijasida alohida chiqarilgan funksional tashkiliy birliklar ko'rinishida moddiylashadi. Innovatsiyaviy jarayonning iqtisodiy va texnologik ta'siri yangi mahsulot yoki texnologiyalarda qisman o'z aksini topadi. Innovatsiyaviy tizim va uning tarkibiy elementlari texnologik darajasini va bu bilan innovatsiyalarga moyilligini oshirishda iqtisodiy va texnologik ta'sirning o'zni kattaroqdir. Loyihalarni davlat tomonidan tartibga solishda boshqarishning muhim tarkibiy qismlari sifatida moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalari yoki investorlarni izlash, moliyaviy mablag'larni boshqarishni ta'kidlab o'tish joiz.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Quyidagi grafikda so'nggi yillarda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm: O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (2010-2016-yillar)

Qishloq xo'jaligida davlat tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirishning tartibga solishning asosiy yo'nalishlari:

- texnik innovatsiyalarni tez va samarali joriy etish zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;
- ilmiy-texnik salohiyatni saqlash va rivojlantirish;
- ilm va texnikaning kadr salohiyatini saqlab qolish uchun zaruriy moddiy sharoitlarni yaratish, kadrlarni chetga chiqib ketishini oldini olish;
- innovatsiyalar soni va samaradorligini oshirish, buning hisobiga insonlar turmush tarzini yaxshilash.

Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida innovatsiyaviy faoliyatni investitsiyalash uchun foydalaniladigan asosiy moliyalashtirish manbalari quyidagilar hisoblanadi.



1. Shaxsiy mablag'lar hisobiga tashkil topgan moliyaviy resurslar:
  - daromadlar (tovar va ilmiy-texnik mahsulotni sotishdan, moliyaviy operatsiyalardan olingan daromad);
  - tushumlar (amortizatsion ajratmalar, mulkni sotishdan tushumlar, mustahkam passivlar, maqsadli tushumlar va h.k.).
2. Budjet ajratmalari:
  - respublika budjeti mablag'lari (masalan, fan va texnikani rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'lar);
  - loyihani shahar yoki viloyat budjetidan moliyalashtirilishi.
3. Qayta taqsimot bo'yicha kelib tushuvchi moliyaviy mablag'lar:
  - qimmatli qog'ozlar bo'yicha dividend va foizlar;
  - tarmoq va hududiy tuzilmalardan kelib tushadigan moliyaviy mablag'lar.
4. Kredit tashkilotlari yoki tashqi investorlar mablag'lari:
  - kredit investitsiyalari;
  - homiylik mablag'lari;
  - mahalliy va xalqaro jamg'armalar, hamda ilmiy-texnologik rivojlanish dasturlarining mablag'lari.

Innovatsiyaviy loyihalarga, shaxsiy va budjet mablag'laridan tashqari, investitsiya kiritishning quyidagi manbalari keng tarqalgan:

- tijorat investitsiyaviy banklari;
- investitsiyaviy va venchur jamg'armalari;
- innovatsiyaviy jamg'armalar;
- ilmiy-tadqiqotlar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xalqaro dasturlar;
- xalqaro-xayriya jamg'armalarini o'z ichiga oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi bugunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Bunda qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ularning o'ziga xos shart-sharoitlari hamda bozor munosabatlariga o'tish bilan bog'liq muammolarini hisobga olgan holda innovatsion boshqaruvni yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida" 2015-yil 25-avgustdagi O'RQ-392-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2008-yil 15-iyuldagi PQ-916-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2015–2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida" 2015-yil 4-martdagi PF-4707-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 1-avgustdagi PQ-5495-sonli Farmoni.
6. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 22.12.2017-yil.
7. Файзиёв О. Социально-экономическое значение возделывания масличных культур в Узбекистане / Proceedings of the II nd International Scientific and Practical Conference "Modern Scientific Achievements and Their Practical Application (October 20-21, 2015, Dubai, UAE)". – Dubai, 2015. – № 3(3), Vol.3. – P.10-11.
8. Файзиёв О.Р. Потребность населения в растительном масле в условиях Узбекистана и методические аспекты её определения // "Экономика и предпринимательство". – Москва, 2017 г., №12 (ч.2) (89-2). (Vol. 11 Nom. 12-2) 305-309.
9. Fayziyev O.R. Aholini o'simlik moyiga bo'lgan talabini aniqlash / "Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni"ga bag'ishlangan "O'zbekiston yoshlari: Agrar soha rivojida mening hissam" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent. 2017. B. 144-148.
10. Fayziev O., Abdug'anieva S., Yo'ldoshboev A. (2022). Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va xususiyatlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(6), 79–81. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/2387>
11. Fayziyev O., Aminboyeva D. (2023). Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(5), 164–167. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/14951>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil **IQTISODIYOT** va **TARAQQIYOT**

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.